

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MUSIQA MASHG'ULOTI FAOLIYATI DAVOMIDA INNOVATSIYALAR

Abdumajidova Nozima Farhod qizi

Xalqaro Nordik Universiteti musiqa ta'limi kafedrası katta o'qituvchisi

abdumajidova98nozima@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarga musiqa mashg'ulotlari o'tish jarayonida foydalaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsion texnologiyalar va musiqiy vositalardan bugungi zamonga mos ravishda amaliyotga tadbiq etish, innovatsiyalardan foydalanish musiqa mashg'ulotlarini samarali va mazmundorligini ta'minlab berishi to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Uzluksiz ta'lim. Rekonstruksiya. Musiqa mashg'uloti. Musiqa tinglash. Innovatsiya. Pedagogik texnologiyalar.

ИННОВАЦИИ В ПРОЦЕССЕ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Аннотация. В статье рассматривается применение новых педагогических технологий, инновационных технологий и музыкальных инструментов в процессе уроков музыки для детей дошкольного возраста в соответствии с современными требованиями; использование инноваций обеспечивает эффективность и содержание уроков музыки.

Ключевые слова: Непрерывное образование. Реконструкция. Уроки музыки. Слушание музыки. Инновации. Педагогические технологии.

INNOVATIONS IN THE PROCESS OF MUSIC TRAINING IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Annotation. The article discusses the application of new pedagogical technologies, innovative technologies and musical instruments used in the process of music lessons for preschool children in accordance with modern times, the use of innovations ensures the effectiveness and content of music lessons.

Keywords: Continuing education. Reconstruction. Music lessons. Listening to music. Innovation. Pedagogical technologies.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim - uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bosqichi ekan, demak, ta'lim tizimini yanada rivojlantirishni aynan maktabgacha ta'limdan boshlash lozimligi ko'p bora ta'kidlanmoqda. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-

maydagi 391- son “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to’g’risida” gi qarori qabul qilindi. Qarorga asosan ko’plab samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, maktabgacha ta’lim tashkilotlari yangidan rekonstruksiya qilindi, xususiy maktabgacha ta’lim tashkilotlari qurildi, zamonaviy jihozlar bilan ta’minlandi, ta’lim-tarbiya berish jarayoni jadallashdi, yangi o’quv dasturlari ishlab chiqildi, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlariga jalb qilish samaradorligi oshirildi. Buning hammasi yosh avlodning yaxshi ta’lim tarbiya olishi uchun. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning musiqiy didini shakllantirishda musiqani ongli ravishda idrok etish ko’zda tutiladi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida olib boriladigan barcha musiqiy tarbiyaviy ishlar bolalarda bog’cha yoshidan boshlab olijanob fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan. Bolalar bog’chalarida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar yosh avlodni ma’naviy jihatdan yetuk, barkamol shaxs bo’lib voyaga yetishishida xizmat qiladi. Musiqa mashg’ulotlari jarayonida kichkintoylar hayotiy voqelikni musiqiy obrazlar orqali idrok etib boradilar. Ular yoshiga mos musiqiy asarlar tarbiyalanuvchilarda unutilmas taassurotlar qoldiradi, ma’naviy dunyosini kengaytiradi. Xususan, yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev maktabgacha ta’lim tizimi haqida quyidagi fikrlarni bejizga bildirmagan edilar: “Aslida, farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo’g’in hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o’rni va ahamiyatini hech narsa bilan o’lchab bo’lmaydi. Aynan maktabgacha ta’lim sohasiga bo’lgan e’tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi”.

METODOLOGIYA

Bola uchun musiqa quvnoq kechinmalar dunyosidir. Uning oldida bu dunyoning eshigini ochish uchun unda qobiliyatlarni, eng avvalo musiqa ohanglarini to’g’ri qabul qilish va emotsional iltifotlilikni o’stirish lozim. Aks holda musiqa o’zining tarbiyaviy vazifalarini bajara olmaydi.

Ilk bolaligida kichkintoy musiqani o’z atrofidagi tovushlar, shovqinlardan farqlaydi. U o’z e’tiborini tinglangan kuyga qaratadi, ma’lum vaqt jim qoladi, tinglaydi, unga jilmayish, g’ug’ulash, ayrim harakatlar bilan javob beradi.

Kattaroq bolalar anchagina o'sgan psixologik qobiliyatlarga ega bo'ladilar. Ular hodisalar o'rtasidagi ba'zi aloqalarni anglaydilar, oddiy faoliyatlarni amalga oshira oladilar - masalan, musiqa xarakterini, ijro etilgan kuyqaysi belgilariga ko'ra quvnoq, shodon, sokin yoki g'amgin ekanligini aytib bera oladilar. Ularga xarakteriga ko'ra turlicha bo'lgan qo'shiqlarni qanday kuylash kerakligi, tinch xorovodda yoki harakatli raqsdan qanday harakat qilish kerakligi haqidagi ko'nikmalar ham tushunarli. Musiqa qiziqishlari ham rivojlanadi: faoliyatning u yoki bu turiga, musiqa janriga moyillik bildiriladi. Olti-etti yoshga kelib, badiiy didning boshlang'ich kurtaklarining namoyon bo'lishi - asarga va uning ijrosiga baho bera bilish qobiliyati kuzatiladi.

Bu yoshda qo'shiq aytiladigan ovoz jarangdorlik, kuychanglik, harakatchanlik kasb etadi. Diapazon tenglashadi, vokal intonatsiya ancha barqarorlashadi.

Musiqa mashg'ulotlarida bolalarning xatti-harakatlari o'quv va ijodiy topshiriqlarni bajarishga yo'llanadi. Ular ijrochilik malakalarini o'zlashtiradilar va o'zlarining sodda ohanglari-ni badiha qiladilar, turli raqslarni ijro etishda esa turli raqs harakatlarini, musiqali o'yin obrazlarini o'zlaricha ifodalashga urinadilar.

Bola shaxsining har tomonlama kamol topishi estetik tarbiyaning axloqiy, aqliy va jismoniy tarbiya bilan uzviy aloqasi tufayli ro'yobga chiqariladi. G'oyaviy-axloqiy ta'sirning amalga oshirilishiga yaxshi ishlab chiqilgan va bolalarning yosh imkoniyatlariga muvofiq tanlangan dastur yordam beradi. Biroq eng asosiysi - musiqaning o'ziga xos xususiyati tufayli shakllanadigan "hissiyotlar maktabi" bo'lib, tinglovchida birgalikda his qilish tuyg'usini uyg'otishdir.

Musiqa mashg'ulotlarida bilish va aqliy faoliyatlar ham o'sib boradi. Bolalar musiqani diqqat berib tinglar ekanlar, ko'p narsalarni bilib oladilar. Biroq, bunda ular musiqaning eng umumiy xususiyatlari, eng yorqin obrazlarinigina idrok etadilar. Agar bolaning oldiga musiqani e'tibor berib tinglash, uning ifoda vositalarini farqlash, qiyoslash, ajratish vazifalari qo'yilgan bo'lsa, emotsional munosabat o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda musiqa rahbari tomonidan yaxshi ishlab chiqilgan mashg'ulitlarga mos bo'lgan innovatsion pedagogik texnologiyalarning ahamiyati katta.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni bolalar ta'limiy jarayonida qo'llashda avvalo yuqoridagi bola kompetensiyalarini shakllantirishning qay birida maqbulligini aniqlash hamda ustuvor jihatlarini hisobga olish kerak. Masalan, mantiqiy o'yinlar va tajribalar ustida ishlash bolaning bilish jarayonida xizmat qilsa, musiqiy o'yinlari ijtimoiy moslashuvchanlikni oshiradi. Shu bois usullarni saralash va muvofiqlashtirish asosida olib borish zarur.

TAHLILLAR

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, shtatlardagi innovatsion texnologiyalar nafaqat mumkin, balki ehtiyoj ham. Biroq, buni yodda tutish kerak pedagogik texnologiyalar Maktabgacha bolalarning o'quv jarayonida qo'llanilishi mumkin, bir nechta qat'iy talablar berildi. Bularga quyidagilar kiradi:

- Kontseptuallik, o'quv jarayoni ma'lum ilmiy tushunchaga asoslanishi kerakligini anglatadi.
- Tizimga tegishli texnologiyalar, bu texnologiyalar tizimga xos bo'lgan barcha belgilarga ega bo'lishi kerak. Ya'ni, ular yaxlit, mantiqiy va ularning elementlarining tarkibiy qismlari bo'lishi kerak - o'zaro bog'liq.
- Ishlov berish - pedagogik jamoa muayyan maqsadlarni belgilash, o'quv jarayonini rejalashtirish, ish jarayonida, bir yoki boshqa lahzalarni tuzatish imkoniyatini tushunish kerak.
- Reprodikuvchanlik - bu talabga nisbatan qo'llaniladigan o'qituvchi shaxsidan qat'i nazar, texnologiyani teng darajada samarali bo'lishi kerak.

NATIJA

Musiqi rahbari quyidagi vazifalarni amalga oshirishi lozim:

1. Musiqaga muhabbat va qiziqishni o'stirish.
2. Bolalarning musiqiy tajribasini boyitish (musiqiy asarlar asosida).
3. Bolalarni oddiy musiqiy tushunchalar bilan tanishtirish, musiqi tinglash, kuylash, musiqiy ritmikasi borasida malakalarni rivojlantirish.
4. Bolalarda emotsional hisni shakllantirish. Ularda lad hissi, ritm tuyg'usini o'stirish va harakatni o'tirish.
5. Musiqiy didni o'stirish (musiqiy taassurotlar asosida).
6. Bolalarda ijodkorlikni o'stirish (barcha faoliyatlar asosida).

7. Musiqa mashg'ulotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

8. Repertuarlarni zamonga mos ravishda tanlash va uning tarbiyaviy-axloqiy jihatlariga ahamiyat berish.

XULOSA

Demak, biz maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa mashg'ulotlarida yangi pedagogik texnologiyalardan ham foydalanishimiz lozim ekan.

Qolaversa, musiqa mashg'ulotlarida bugungi kunda zamonaviy texnikalar ham olib kirilmoqda. Televizor, ovoz kuchaytirgichlar, mikrafonlar, zamonaviy cholg'u asboblari shular jumlasidandir. Musiqa rahbari yangi qo'shiqni bolalarga televizor orqali video yozuvini qo'yib bersa ularda boshlang'ich tushunchalar paydo bo'ladi. Elektron kichraytirilgan bolalarga mos bo'lgan fortepiano cholg'usida ijro qilishni o'rganishi ham mumkin. Bunda qo'shiqga mos bo'lgan notalarni bosib turishi tavsiya etiladi. Ushbu musiqiy vositalar musiqa mashg'ulotlarni mazmundor, samarali va bolalarning musiqaga yuqori qiziqishiga ularning musiqani chuqurroq his etishiga, musiqiy ritmni his etishiga emotsional his-tug'ularini uyg'onishiga va albatta, estetik zavq olishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizxo'jayeva N. N. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat". Toshkent. 2006.y
2. M.S.Muhiddinova "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida axborot -kompyuter texnologiyalarini musiqa tarbiyasi vositasi sifatida qo'llashning xususiyatlari" 2020.y
3. Ijtimoiy axborot portali: www.ZiyoNET.uz
4. Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi qarori .2019-yil 13-maydagi 391 son
5. Qizi, A. N. F. (2022). ALISHER NAVOIY VA MUSIQA. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(Conference DSMI), 252-555.